
SO'X TUMANIDA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLIGA KO'RSATILGAN AMALIY KO'MAKLAR KO'RSATIGCHLARI



So'x tumanida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko'rsatilgan amaliy ko'maklar ko'rsatigchlari

Aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha o'tgan yili **"Ayollar daftari"** va **"Yoshlar daftari"** joriy qilinib, **"Mahallabay"** ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Tumanda 1 972 nafar xotin-qizlar **"Ayollar daftari"**ga kiritilgan bo'lib, ulardan **1 414 nafari** ish bilan ta'minlandi.

Shundan **92-nafariga** imtiyozli kreditlar, **464 nafari**ga Ayollar jamg'armasi tomonidan **599 million so'mlik** bir martalik yordam ko'rsatildi.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan **1 079 nafar** yoshlarga ko'mak ko'rsatilib, shundan **631 nafari** doimiy va mavsumiy ishga joylashtirilgan, **47 nafari**ga **1 milliard 200 million so'mlik** imtiyozli kreditlar hamda **108 nafar** yoshlarga **10** yilga **54 gektar yer** maydonlari ajratib berilgan.

Shuningdek, jamg'arma hisobidan ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik yordamga muxtoj **341 nafar** yoshlarga **902 million 800 ming so'mlik** turli yunalishlar bo'yicha yordamlar ko'rsatildi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan **37 nafar** voyaga yetmaganlarga **"Mehr"** daftari jamg'armasi hisobidan turli yo'nalishlarda **232 million 300 ming** so'mlik yordamlar ko'rsatildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-30 11:10:58